



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 2-son

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 28.04.2025-yilda
bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Й. Махмудов, М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
28.04.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© **Ташкентский государственный
юридический университет**

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 28.04.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law. 100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ALIYEV ILHOMJON MUROD O’G’LI**
Sun’iy intellekt texnologiyalarini O’zbekiston Respublikasi adliya organlari faoliyatiga tatbiq etish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Zamonaviy kiberkorupsiya: tushunchasi, muammolari va Markaziy Osiyo hududida unga qarshi kurashish choralari
- 30 **JUMAG’ULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: yangi huquqiy institutga tarixiy nazar
- 38 **INOYATOV NODIRBEK XAYITBOY O’G’LI**
Sun’iy intellekt va avtonom transport vositalari: raqamli davrda huquq subyektliligi masalalari
- 47 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Sog’liqni saqlash sohasida sun’iy intellektni joriy etishdagi normativ to’siqlar
- 55 **SAIDOV BOBUR BAXROMJONOVICH**
Metaolamlarni huquqiy tartibga solish: virtual dunyoda yurisdiksiya va intellektual mulkni himoya qilish masalalari
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
AQShda robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga solish xususiyatlari
- 91 **NURULLAYEV UMIDBEK XUDAYBERDIYEVICH**
O’zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligida axborot vositachisining huquqiy maqomi masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 101 **ABDULLAYEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish masalalari va bu boradagi xalqaro qonunchilik asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 111 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDIN QIZI**
Xorijiy mamlakatlarda yer servitutining turlari va ularning huquqiy tabiati
- 125 **TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**
Atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki: xalqaro standartlar va xorij tajribasi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 141 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**
Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqining umumiy xalqaro huquq tizimidagi o’rni: nazariy-metodologik yondashuvlar

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT QIZI**
Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki tushunchasi va tavsifi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH.
PROBATSIYA FAOLIYATI

- 161 **XO’JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**
Jamoat xavfsizligini ta’minlashni takomillashtirish: Turkiya tajribasi va O’zbekiston uchun istiqbollar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ**

Внедрение технологий искусственного интеллекта в деятельность органов юстиции
Республики Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 **РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ, ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**

Современная киберкоррупция: понятие, проблемы и пути противодействия
в Центральноазиатском регионе

30 **ЖУМАГУЛОВ АЛИШЕР ЭРНАПАСОВИЧ**

Сукук: исторический взгляд на новый правовой институт

38 **ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙИТБОЙ УГЛИ**

Искусственный интеллект и автономные транспортные средства: вопросы правовой
субъектности в цифровую эпоху

47 **КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА**

Нормативные барьеры внедрения искусственного интеллекта в здравоохранении

55 **САИДОВ БОБУР БАХРОМЖОНОВИЧ**

Правовое регулирование метавселенных: вопросы юрисдикции и защиты интеллектуальной
собственности в виртуальных мирах

81 **НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА**

Особенности регулирования деятельности роботов-консультантов в США

91 **НУРУЛЛАЕВ УМИДБЕК ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ**

Правовой статус информационного посредника в законодательстве Узбекистана и зарубежных стран

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

101 **АБДУЛЛАЕВА РИСОЛАТ СУННАТОВНА**

Вопросы регистрации браков с иностранными гражданами и международно-правовые основы
в этой сфере

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

111 **АБДУСАМАДОВА ЗАРИНА ШОБИДДИН КИЗИ**

Типы сервитутов в зарубежных странах и их правовая природа

125 **ТУРДИЕВ БОБИР СОБИРОВИЧ**

Участие общественности в принятии решений, касающихся окружающей среды:
международные стандарты и зарубежный опыт

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

141 **РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ**

Место дипломатического права международных организаций в системе международного права:
теоретико-методологические подходы

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

150 **НОСИРОВА МАРЖОНА НЕГМАТ КИЗИ**

Понятие и характеристика участия некоммерческих негосударственных организаций
в защите прав человека

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

161 **ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ**

Совершенствование обеспечения общественной безопасности: опыт Турции и перспективы для
Узбекистана

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI**
Implementation of artificial intelligence technologies in the activities of the justice authorities of the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH**
Modern cybercorruption: concept, challenges, and countermeasures in the Central Asian region
- 30 **JUMAGULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: a historical view of the new legal institution
- 38 **INOYATOV NODIRBEK KHAYITBOY UGLI**
Artificial intelligence and autonomous vehicles: issues of legal subjectivity in the digital era
- 47 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Regulatory barriers to the implementation of artificial intelligence in healthcare
- 55 **SAIDOV BOBUR BAKHROMJONOVICH**
Legal regulation of metaverses: issues of jurisdiction and intellectual property protection in virtual worlds
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Features of regulating robo-advisors in the USA
- 91 **NURULLAEV UMIDBEK KHUDAYBERDIYEVICH**
Issues of the legal status of an information intermediary in the legislation of Uzbekistan and foreign countries

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 101 **ABDULLAEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Issues of marriage registration with foreign citizens and the foundations of international legislation in this regard

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 113 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDINOVNA**
Types of servitudes in foreign countries and their legal nature
- 125 **TURDIEV BOBIR SOBIROVICH**
Public participation in environmental decision-making: international standards and foreign experience

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 141 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**
The role of the diplomatic law of international organizations in the general system of international law: theoretical and methodological approaches

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT KIZI**
The concept and descriptions of the participation of non-governmental non-profit organizations in the protection of human rights

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 161 **KHUJAMBERDIYEV FARRUKH KOMILOVICH**
Improving public safety ensuring: the experience of turkey and prospects for Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 26.02.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.04.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 28.04.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2./JFWM9493

UDC: 342.7+347.195.3(045)(575.1)

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA TAVSIFI

Nosirova Marjona Negmat qizi,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0006-3542-9802
e-mail: marjonanosirova58@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilot (NNT) larining o'рни, ahamiyati va faoliyat mexanizmlarini tadqiq etadi. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda NNTlari fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida inson huquqlarini himoya qilish tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Maqolada NNTlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari, ularning mustaqillik, moslashuvchanlik, ixtisoslashish kabi o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi asosida NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati tartibga solinishi masalalari o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, NNTlari inson huquqlarini himoya qilishda monitoring o'tkazish, huquqiy yordam ko'rsatish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, huquqiy savodxonlikni oshirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi ko'plab muhim funksiyalarni bajaradi. Maqolada O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari ishtirokining hozirgi holati, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar har tomonlama tahlil qilinadi. Moliyaviy resurslar va malakali kadrlar yetishmasligi, davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarining mukammal emasligi, huquqiy bazaning ayrim kamchiliklari kabi muammolar aniqlangan. Maqola yakunida NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini yanada oshirish uchun ular faoliyatining moliyaviy asoslarini mustahkamlash, davlat organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, qonunchilikni takomillashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, huquqiy himoya, jamoatchilik nazorati, xalqaro standartlar, milliy qonunchilik, inson huquqlari monitoringi

ПОНЯТИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКА УЧАСТИЯ НЕКОММЕРЧЕСКИХ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ЗАЩИТЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Носирова Маржона Негмат кизи,
базовый докторант Института государства и права
Академии наук Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются роль, значение и механизмы деятельности некоммерческих неправительственных организаций (ННО) в защите прав человека. В

современных демократических обществах ННО становятся неотъемлемой частью системы защиты прав человека, выступая важным институтом гражданского общества. В статье анализируются теоретико-правовые основы деятельности ННО в сфере прав человека, их характерные черты, такие как независимость, гибкость, специализация, а также функции, которые они выполняют. Особое внимание уделяется вопросам правового регулирования деятельности ННО в области защиты прав человека на основе законодательства Узбекистана и зарубежных стран. Согласно результатам исследования, ННО играют важную роль в проведении мониторинга соблюдения прав человека, оказании правовой помощи, разработке предложений по совершенствованию законодательства, повышению правовой грамотности населения, а также в осуществлении общественного контроля. В статье всесторонне анализируется текущее состояние участия ННО в защите прав человека в Узбекистане, достигнутые успехи и существующие проблемы. Среди выявленных проблем: недостаток финансовых ресурсов и квалифицированных кадров, несовершенство механизмов взаимодействия с государственными органами, а также отдельные пробелы в правовой базе. В заключительной части статьи предложены практические рекомендации по усилению роли ННО в защите прав человека, включая укрепление финансовой базы их деятельности, развитие сотрудничества с государственными органами, расширение возможностей осуществления общественного контроля, совершенствование законодательства и повышение кадрового потенциала.

Ключевые слова: неправительственные некоммерческие организации, права человека, гражданское общество, правовая защита, общественный контроль, международные стандарты, национальное законодательство, мониторинг прав человека

THE CONCEPT AND DESCRIPTIONS OF THE PARTICIPATION OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE PROTECTION OF HUMAN RIGHTS

Nosirova Marjona Negmat kizi,

Basic doctoral student at the Institute of State and Law
of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article examines the role, significance, and operational mechanisms of non-governmental non-profit organizations (NGOs) in protecting human rights. In modern democratic societies, NGOs have become an integral part of the human rights protection system, serving as a key institution of civil society. The article analyzes the theoretical and legal foundations of NGOs' activities in the field of human rights, as well as their distinctive characteristics and functions, such as independence, adaptability, and specialization. It also explores the regulation of NGOs' activities in protecting human rights under the legislation of Uzbekistan and foreign countries. The research results indicate that NGOs perform numerous critical functions, including monitoring human rights, providing legal assistance, developing proposals for legislative improvements, enhancing legal literacy, and exercising public oversight. The article comprehensively analyzes the current state of NGO participation in human rights protection in Uzbekistan, highlighting achievements and existing challenges. Identified issues include a lack of financial resources and qualified personnel, imperfect mechanisms for collaboration with state authorities, and certain deficiencies in the legal framework. In conclusion, the article offers practical recommendations to enhance the role of NGOs in human rights protection, including strengthening their financial foundations, improving cooperation with state bodies, expanding opportunities for public oversight, refining legislation, and enhancing personnel capacity.*

Keywords: *non-governmental non-profit organizations, human rights, civil society, legal protection, public control, international standards, national legislation, human rights monitoring*

Kirish

Zamonaviy demokratik jamiyatlarda inson huquqlarini himoya qilish tizimi davlat va nodavlat notijorat tashkilot (NNT)lari hamkorligida samarali amal qiladi. Inson huquqlarini ta'minlash masalasi faqat davlat zimmasidagi vazifa emas, balki butun jamiyatning, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu tizimda NNTlarining o'ziga xos o'rni va roli bor bo'lib, ular davlat organlaridan mustaqil ravishda faoliyat olib borib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Global miqyosda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati tobora kengayib, chuqurlashib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda ular nafaqat huquq buzilishi holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish, balki inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, huquqiy madaniyatni rivojlantirish, alohida himoyaga muhtoj guruhlarni qo'llab-quvvatlash kabi ko'plab yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda. O'zbekistonda ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq bu faoliyatning huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari, o'ziga xos xususiyatlari va samaradorligini oshirish yo'llari yetarlicha tadqiq etilmagan. NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatining mohiyati, amaliy ahamiyati va ta'sirchanligini oshirish masalalarini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu maqolada NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari va istiqbollari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi o'ziga

xos roli, ularning faoliyat yo'nalishlari va funksiyalari, davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlari, shuningdek, faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari atroflicha o'rganiladi. Maqsad inson huquqlarini himoya qilish tizimida NNTlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Material va metodlar

Tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan ushbu tadqiqotda inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari faoliyatining nazariy-huquqiy jihatlari, amaliy mexanizmlari va istiqbollari har tomonlama o'rganish uchun turli ilmiy-metodologik vositalardan foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli-strukturaviy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy, abstrakt-mantiqiy va statistik ma'lumotlarni umumlashtirish usullari qo'llangan. Bu metodologik asos inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari ishtirokining nazariy-huquqiy jihatlari, amaliy mexanizmlari va istiqbollari har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida NNTlari va inson huquqlari sohasiga oid xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar, jumladan, BMT konvensiyalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi inson huquqlarini himoya qiluvchi NNTlari faoliyati to'g'risidagi hisobotlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar o'rganildi.

Inson huquqlarini himoya qilishda NNTlarining roli va ahamiyati mavzusi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot davomida turli mualliflarning ilmiy ishlari va nazariy qarashlari o'rganildi, tahlil qilindi va tizimlashtirilib, quyidagi guruhlarga bo'lindi:

NNTlari va fuqarolik jamiyati nazariyasiga oid tadqiqotlar. Bu yo'nalishda J. Keane o'zining "Global Civil Society?" nomli asarida fuqarolik jamiyati va NNTlarining xalqaro

maydondagi rolini tadqiq etgan [1]. Muallif globallashtirish sharoitida NNTlarining transmilliy xususiyat kasb etishi va ularning faoliyati milliy chegaralardan tashqariga chiqishi natijasida “global fuqarolik jamiyati” tushunchasi shakllanayotganini ta’kidlaydi. Shuningdek, J. Keane NNTlarining demokratik jarayonlardagi roli va inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini atroflicha tahlil qiladi. Rossiyalik olim A. Sungurov o’zining “Grazhdanskoye obshchestvo i yego razvitiye v Rossii” nomli monografiyasida NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi funksiyalarini batafsil yoritib bergan [2]. Ushbu tadqiqotda NNTlarining jamiyat va davlat orasidagi vositachilik roli, ularning huquq ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o’rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Muallif NNTlarini rivojlantirish uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy sharoitlarni yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilish masalalariga oid tadqiqotlar. O‘zbek olimlaridan X. Odilqoriyev va I. Tulteyev o‘zlarining “Ikki palatali parlament” kitobida fuqarolik jamiyati institutlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini, jumladan, inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalarini tadqiq etishgan [3]. Mualliflar fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, NNTlarining parlament faoliyatidagi ishtiroki demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va inson huquqlarini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashadi. Akademik A. Saidov “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi” asarida O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimida NNTlarining o‘rnini tahlil qilgan [4]. Muallif inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi tarkibiy qismlari orasida NNTlarining alohida o‘rin tutishini, ularning inson huquqlari sohasidagi

xalqaro va milliy normalarga rioya etilishini ta’minlashdagi rolini ko‘rsatib bergan.

NNTlarining huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga solish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar. M. Malikova o‘zining ilmiy ishlarida O‘zbekistonda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi faoliyatining huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilgan [5]. Muallif O‘zbekistonda NNTlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining rivojlanish tarixi, uning zamonaviy holati va takomillashtirish istiqbollarini tahlil qiladi. Shuningdek, M. Malikova NNTlarining davlat organlari bilan hamkorligi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish masalalarini ham ko‘rib chiqqan.

Xalqaro arenada inson huquqlari himoyachilari va NNTlari faoliyatiga oid tadqiqotlar. Xalqaro tadqiqotchilardan M. Keck va K. Sikkink “Activists Beyond Borders” asarida transnatsional inson huquqlari himoyachilarining faoliyatini o‘rganishgan [6]. Mualliflar xalqaro inson huquqlari tarmog‘ining shakllanishi, ularning o‘zaro hamkorligi va davlatlarga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. Ushbu tadqiqot NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishda davlat chegarasidan tashqarida, xalqaro maydonda faoliyat yuritish imkoniyatlarini ochib bergan.

NNTlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli va mexanizmlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar. L. Xamrayeva va A. Ismailov NNTlarining davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini tahlil qilishgan [7]. Mualliflar jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari, shakllari va usullarini o‘rganib, O‘zbekistonda bu sohadagi amaliyotni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatib berishgan. Tadqiqotda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari, uning samaradorligini oshirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta’minlashda NNTlarining rolini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar. E. Smith-Cannoy

o'zining "Insisting on the Rule of Law: Civil Society and Human Rights" nomli asarida NNTlarining qonun ustuvorligini ta'minlashdagi rolini ko'rib chiqqan [8]. Muallif turli davlatlarda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini tahlil qilib, ularning qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqiy islohotlarni amalga oshirishdagi rolini ko'rsatib bergan. Bu tadqiqot NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushunish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Alohida e'tibor NNTlari va mahalla institutining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini farqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida mahalla – o'zini o'zi boshqarish organi sifatida, o'zining huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyat mexanizmlari jihatidan NNTlaridan farq qilishi aniqlandi. Mahalla o'zini o'zi boshqarish organi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinsa, NNTlari faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Garchi ikkala institut ham fuqarolik jamiyati tarkibiga kirsa-da, ularning huquqiy maqomi, tashkil etilishi, faoliyatni amalga oshirish mexanizmlari va moliyalashtirish manbalari o'rtasida muhim farqlar mavjud. Shu sababli, ushbu tadqiqotda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati mahalla institutining faoliyati bilan aralashtirmagan holda alohida o'rganildi.

Ushbu tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari ishtiroki masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda bu sohadagi nazariy va amaliy masalalar hali ham yetarlicha tadqiq etilmagan. Jumladan, O'zbekistonda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari, NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikning institutsional me-

xanizmlari, shuningdek, NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish masalalari chuqur tadqiqotlarni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari

Nodavlat notijorat tashkilotlari – bu fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, o'zini o'zi boshqarish tamoyiliga asoslangan va foyda olishni asosiy maqsad qilib qo'ymagan tashkiliy-huquqiy shakldir. Inson huquqlarini himoya qilishda NNTlarining o'rni ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi:

Mustaqillik: NNTlari davlat tuzilmalaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi, bu esa ularning inson huquqlari buzilishi holatlari to'g'risida xolis ma'lumot berish, davlat organlari faoliyatini tanqidiy baholash imkoniyatini beradi.

Moslashuvchanlik: NNTlari byurokratik to'siqlar va rasmiyatchiliklardan xoli bo'lib, inson huquqlari bilan bog'liq muammolarga tezkor munosabat bildirish imkoniyatiga ega.

Ixtisoslashish: ko'pgina NNTlari ma'lum bir soha yoki muayyan hududda inson huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashadi, bu esa ularning tegishli sohalarda chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Jamoatchilik ishonchi: NNTlari ko'pincha mahalliy hamjamiyatlar bilan yaqin aloqada bo'ladi va ularning ishonchiga sazovor bo'ladi, bu esa inson huquqlari buzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi[9]:

– monitoring va tahlil: NNTlari inson huquqlarining holati, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini kuzatib boradi, inson huquqlari buzilishi holatlari to'g'risida ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi, shuningdek, tegishli hisobotlarni nashr etadi;

– normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: NNTlari inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif-

lar ishlab chiqadi, qonun loyihalarini muhokama qilishda faol ishtirok etadi;

– huquqiy yordam ko'rsatish: NNTlari huquqlari buzilgan shaxslarga bepul yuridik maslahatlar beradi, sudlarda va boshqa davlat organlarida ularning manfaatlarini himoya qiladi;

– huquqiy ta'lim va targ'ibot: NNTlari aholining huquqiy ongini oshirish, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish va insonlarni o'z huquqlarini himoya qilishga o'rgatish bo'yicha faoliyat olib boradi;

– jamoatchilik nazorati: NNTlari davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, shu jumladan, inson huquqlariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari faoliyatining huquqiy asosini xalqaro-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik tashkil etadi.

Xalqaro-huquqiy hujjatlardan BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) kabilar muhim o'rin tutadi [10]. Mazkur hujjatlarda har bir insonga o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun birlashmalar tuzish huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasida NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati quyidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi:

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga ko'ra, davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega;

– O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni (1999). Ushbu qonunda NNTlarining huquqiy maqomi, ularni tashkil etish, faoliyatini

amalga oshirish va tugatish tartibi belgilangan [9];

– O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni (2018). Bu qonun NNTlari tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydi;

– O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. (2014) Mazkur qonun NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik shakllari va mexanizmlarini tartibga soladi.

Inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlari alohida ahamiyatga ega:

– siyosiy va fuqarolik huquqlarni himoya qilish: bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi NNTlari so'z, matbuot, vijdon erkinligi, odil sudlov, saylov huquqi va boshqa siyosiy huquqlarni himoya qiladi. Masalan, "Huquqiy tayanch" jamoat birlashmasi O'zbekistonda saylov jarayonlarini monitoring qilish faoliyatini olib boradi [11];

– ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni himoya qilish: bu turdagi NNTlari mehnat huquqlari, ijtimoiy ta'minot, tibbiy xizmat, ta'lim olish huquqi kabi sohalarda faoliyat yuritadi. Masalan, "O'zbekiston nogironlar jamiyati" tashkiloti nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi [12];

– ma'naviy-madaniy huquqlarni himoya qilish: bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi NNTlari milliy-madaniy meros, til, an'analar, din va boshqa madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish huquqlarini himoya qiladi;

– maxsus guruhlariga mansub shaxslar huquqlarini himoya qilish: bu turdagi NNTlari ayollar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, migrantlar, keksalar, milliy ozchiliklar va boshqa zaif guruhlar huquqlarini himoya qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi ayollarning gender tenglik huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi [13].

Tadqiqot jarayonida NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish masalalarining nafaqat amaliy mexanizmlar, balki qonunchilikdagi prinsipial masalalarga ham bog'liq ekanligi aniqlandi. Hozirgi paytda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (2014) NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari va mexanizmlari belgilangan bo'lsa-da, qonun ijrosi amaliyotida bir qator muammolar mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

Qonunchilikdagi prinsipial masalalarni takomillashtirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunga inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi ijtimoiy sheriklikning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida bo'lim kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu bo'limda inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikning aniq yo'nalishlari, shakllari va mexanizmlari, shuningdek, hamkorlikning huquqiy kafolatlari belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, qonunga davlat organlari tomonidan NNTlarining inson huquqlari sohasidagi takliflarini majburiy ko'rib chiqish tartibini belgilovchi normalarni kiritish zarur. Hozirgi vaqtda NNTlari tomonidan tayyorlangan takliflar va tavsiyalarni davlat organlari tomonidan ko'rib chiqish majburiy emas, bu esa ularning samaradorligini pasaytiradi.

Uchinchidan, qonunda davlat organlari va NNTlari o'rtasida ma'lumot almashish tartibini aniq belgilash zarur. Inson huquqlari sohasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun NNTlarining davlat organlaridan zarur ma'lumotlarni olish huquqini kafolatlash, shuningdek, inson huquqlari buzilishi holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni almashish mexanizmlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, qonunga NNTlarining davlat organlari qarorlarini qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlarni kiritish lozim. Xususan, inson huquqlariga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini majburiy jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish tartibini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, qonunda davlat organlari va NNTlari hamkorligining monitoringi va baholash mexanizmlarini belgilash zarur. Bu ijtimoiy sheriklikning samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi (2018) va "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun (2014)lari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, ziddiyatlarni bartaraf etish va huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish zarur. Xususan, inson huquqlarini himoya qilish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda NNTlarining aniq vakolatlari va huquqiy maqomini belgilash lozim.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuniga (1999) ham bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur. Jumladan, qonunda NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatining huquqiy kafolatlari, davlat organlari bilan munosabatlarda ularning huquq va majburiyatlari, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlik masalalarini aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalariga ko'ra, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun loyhasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq. Ushbu qonunda inson huquqlari sohasidagi ma'lumotlarning ochiq-likini ta'minlash, inson huquqlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va tarqatish tartibini belgilash, shuningdek, bu jarayonda NNTlarining ishtirokini huquqiy jihatdan mustahkamlash lozim.

Davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bir qatorda, NNTlarining o‘z faoliyatiga oid qonunchilikni ham takomillashtirish zarur. Jumladan, NNTlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, ularning xorijiy mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, NNTlari faoliyatini nazorat qilish tartibini liberallashtirish, NNTlarini tashkil etish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini yanada soddalashtirish masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solish lozim.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish uchun kompleks qonunchilik tashabbusini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu tashabbusda yuqorida ko‘rsatilgan barcha qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari ishtirokining o‘ziga xos jihatlari hisobga olgan holda yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish masalalari ham ko‘rib chiqilishi lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda NNTlarining o‘rni va ahamiyati so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlarini, jumladan, NNTlarini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat yuritayotgan NNTlari soni ortib bormoqda. 2023-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, respublikada 10 mingdan ortiq NNTlari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan qariyb 15 foizi bevosita inson huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat yuritmoqda [14].

Inson huquqlarini himoya qilish sohasida NNTlarining davlat organlariga ta‘sir mexanizmlari tahlili quyidagi jadvalda aks ettirilgan (jadval).

Jadval
NNTlarning inson huquqlarini himoya qilishda davlat organlariga ta‘sir mexanizmlari

Ta‘sir mexanizmi	Huquqiy asos	Samaradorlik darajasi
Jamoatchilik ekspertizasi	O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni	O‘rta
Huquqiy normalarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar	O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni	Past
Inson huquqlari buzilishi to‘g‘risida murojaatlar	O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuni	O‘rta
Jamoatchilik kengashlari orqali ta‘sir	«Davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi to‘g‘risida»gi namunaviy nizom	O‘rtayuqori
OAV orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish	O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni	Yuqori

Manba: tadqiqot materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, NNTlari inson huquqlarini himoya qilishda davlat organlariga ta‘sir ko‘rsatishning turli mexanizmlaridan foydalanadi. Bularning har biri o‘ziga xos huquqiy asoslarga ega bo‘lib, amaliyotda turli darajadagi samaradorlikni namoyon etmoqda.

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat yuritayotgan yirik NNTlari qatoriga “Ezgu niyat” xalqaro inson huquqlari jamiyati, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, “Huquqiy tayanch” jamoat birlashmasi kabi tashkilotlarni kiritish mumkin. Ular inson huquqlari sohasida monito-

ring o'tkazish, huquqiy yordam ko'rsatish, huquqiy savodxonlikni oshirish, qonun loyihalarini ekspertiza qilish kabi ko'plab yo'nalishlarda faoliyat olib boradi [15].

Keyingi yillarda O'zbekistonda NNTlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida bir qator muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan, 2018-yilda Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi, NNTlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib-taomillari soddalashtirilib, davlat subsidiyalari va grantlarini olish imkoniyatlari kengaytirildi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda NNTlari faoliyatida quyidagi muammolar mavjud [16]:

– *moliyaviy resurslar yetishmasligi*: ko'pgina NNTlari moliyaviy mablag'lar yetishmasligi muammosiga duch keladi, bu esa ularning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi;

– *malakali kadrlar yetishmasligi*: NNTlarida inson huquqlari sohasida chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar yetishmasligi ham dolzarb muammo hisoblanadi;

– *davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarining mukammal emasligi*: ayrim hollarda NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro ishonchsizlik va hamkorlik mexanizmlarining samarali ishlamasligi kuzatiladi;

– *huquqiy bazaning ayrim kamchiliklari*: NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikda hali ham ayrim bo'shliqlar va ziddiyatlar mavjud.

Inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq [17]:

– NNTlari faoliyatining moliyaviy asoslarini mustahkamlash: bu maqsadda davlat subsidiyalari va grantlarini ajratish tizimini takomillashtirish, shuningdek, xususiy sektor va xalqaro donorlar mablag'larini jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarur;

– NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish: bu yo'nalishda

O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunini amaliyotga to'liq joriy etish, shuningdek, davlat organlari va NNTlar o'rtasida doimiy muloqot maydonchalarini yaratish muhim ahamiyatga ega;

– NNTlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish: O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, NNTlarining davlat organlari faoliyatini monitoring qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur;

– NNTlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish: bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq takomillashtirish, shuningdek, NNTlarining grant va xorijiy mablag'larni olish tartibini soddalashtirish muhim;

– NNTlarida kadrlar salohiyatini oshirish: bu yo'nalishda NNTlarida ishlovchi mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida nodavlat notijorat tashkilotlari yo'nalishida mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilot (NNT)lari fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida alohida o'rin tutadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi faoliyati ko'p qirrali bo'lib, monitoring o'tkazish, huquqiy yordam ko'rsatish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, huquqiy savodxonlikni oshirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Bu faoliyat zamonaviy demokratik jamiyatda huquqiy davlat va inson huquqlari himoyasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi o'rni ularning davlat organlaridan mustaqilligi, moslashuvchanligi, ixtisosla-

shuvi va jamoatchilik ishonchiga ega ekanligi kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar ularga inson huquqlari buzilishi holatlari to'g'risida xolis ma'lumot berish, davlat organlari faoliyatini tanqidiy baholash, huquq va erkinliklarni himoya qilishda fuqarolarga yordam berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, NNTlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, xalq hokimiyatchiligini ta'minlash va inson huquqlari madaniyatini shakllantirishdagi muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari ishtirokining huquqiy asoslari milliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. So'nggi yillarda O'zbekistonda NNTlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan islohotlar ularning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini yanada faollashtirish imkonini berdi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish strategiyasi doirasida NNTlarining rolini oshirish, ularning davlat organlari bilan hamkorligini kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biroq tadqiqot natijalarida aniqlangan moliyaviy resurslar va malakali kadrlar yetishmasligi, davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarining mukammal emasligi, huquqiy bazaning ayrim kamchiliklari kabi muammolar NNTlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatining samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikka prinsipial o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi va "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish

sohasida NNTlarining vakolatlarini kengaytirish va ularning davlat qarorlarini qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash lozim. Qonunchilikdagi prinsipial o'zgarishlar inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari faoliyatining huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish uchun asos bo'ladi.

Bundan tashqari, NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlarni ham amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlari qoshida NNTlari ishtirokidagi doimiy faoliyat yurituvchi jamoatchilik-maslahat kengashlarini tashkil etish va ularning samarali ishlashini ta'minlash;

- NNTlarining inson huquqlari monitoringini o'tkazish natijalari bo'yicha milliy va xalqaro hisobotlarni tayyorlash jarayonida ishtirokini kengaytirish;

- inson huquqlari sohasidagi qonun loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda NNTlarining ishtirokini ta'minlash uchun ochiq platformalar yaratish;

- inson huquqlari sohasida faoliyat yuritayotgan NNTlari uchun maqsadli grant va subsidiyalar ajratish tizimini joriy etish;

- NNTlari va davlat organlari vakillari uchun inson huquqlari sohasida qo'shma o'quv dasturlarini tashkil etish.

Inson huquqlarini himoya qilishda NNTlari ishtirokini kengaytirish va ularning faoliyatini samarali tashkil etish orqali O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy davlat barpo etish va inson huquqlarini ta'minlashda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilish mumkin. Bu jarayonda davlat va nodavlat sektorining kuch va imkoniyatlarini birlashtirish, ularning o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarini rivojlantirish strategik vazifa hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, inson huquqlarini himoya qilish sohasida NNTlar fao-

liyatini takomillashtirish nafaqat fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, balki butun mamlakatda inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat

qiladi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'-e'tiborini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Keane J. *Global Civil Society?* Cambridge University Publ., 2003, pp. 230–232.
2. Sungurov A. *Grazhdanskoe obshchestvo i ego razvitie v Rossii* [Civil Society and its Development in Russia]. St. Petersburg, Legal Center Publ., 2017, pp. 36–65.
3. Odilqoriyev X., Tulteev I. *Ikki palatali parlament* [Bicameral Parliament]. Tashkent, TSUL Publ., 2019, p. 123.
4. Saidov A. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi* [Universal Declaration of Human Rights and the National System of Human Rights Protection in Uzbekistan]. Tashkent, Justice Publ., 2018, pp. 78–80.
5. Malikova M. *O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi* [Legal Status of Non-governmental Non-profit Organizations in Uzbekistan]. Tashkent, TSUL Publ., 2020, p. 92.
6. Keck M., Sikkink K. *Activists Beyond Borders: Advocacy Networks in International Politics*. Cornell University Publ., 2018, p. 124.
7. Xamrayeva L., Ismailov A. *Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli* [The Role of Non-governmental Non-profit Organizations in Implementing Public Control]. *Lawyer's Bulletin*, 2021, vol. 3(2), pp. 45–52.
8. Smith-Cannoy H. *Insisting on the Rule of Law: Civil Society and Human Rights*. University of Pennsylvania Publ., 2012, pp. ??
9. Rakhimov M., Abdullaev N. *The role of NGOs in promoting human rights in Uzbekistan: Problems and prospects*. *Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities*, 2022, vol. 3(2), pp. 78–89.
10. *Universal Declaration of Human Rights*. Adopted by UN General Assembly Resolution 217A (III), 1948.
11. Ismoilov B. *O'zbekistonda saylov jarayonlarini monitoring qilishda NNTlarning roli* [The Role of NGOs in Monitoring Electoral Processes in Uzbekistan]. *Democratization and Human Rights*, 2022, vol. 2(3), pp. 67–79.
12. Azimov K. *Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda NNTlarning o'rni* [The Role of NGOs in Protecting the Rights of Persons with Disabilities]. *Society and Management*, 2020, vol. 1(1), pp. 34–45.
13. Karimova, G. *O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashda NNTlarning roli* [The Role of NGOs in Ensuring Gender Equality in Uzbekistan]. *Law and Society*, 2021, vol. 4(2), pp. 78–89.
14. *O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida statistik ma'lumotlar* [Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. Statistical Data on Non-governmental Non-profit Organizations in Uzbekistan]. Tashkent, 2023.
15. Usmanov A. *O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari: tajriba va istiqbollari* [Non-governmental Non-profit Organizations Operating in the Protection of Human Rights in Uzbekistan: Experience and Prospects]. *Law and Duty*, 2021, vol. 5, pp. 12–18.
16. Qodirov E. *O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish masalalari* [Issues of Improving Legislation Regulating the Activities of Non-governmental Non-profit Organizations in Uzbekistan]. *Bulletin of Legal Sciences*, 2022, vol. 2(1), pp. 56–67.
17. Axmedov B. *O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda NNTlar ishtirokini kengaytirish istiqbollari* [Prospects for Expanding NGO Participation in Human Rights Protection in Uzbekistan]. *Democratization and Human Rights*, 2021, vol. 3(4), pp. 89–98.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.